

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

O'ZBEK XALQ IJODIYOTIDA PROKRASTINATSIYA FENOMENI

Aripova Matluba Lutfullayevna

O'zDJTU "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu tezisda xalq og'zaki ijodiyotida prokrastinatsiya (kechiktirish) hodisasining mazmuni, xususiyati, salbiy jihatlari va ta'siri haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: prokrastinatsiya, shaxs, kechiktirish, xalq og'zaki ijodi, maqollar, ertaklar, qadriyat, mas'uliyat, illat, doston, motivatsiya, xususiyat.

THE PHENOMENON OF PROCRASTINATION IN UZBEK FOLKLORE

Aripova Matluba Lutfullayevna

Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, UzSWLU

Annotation. This paper discusses the nature, characteristics, negative aspects, and impact of the phenomenon of procrastination (delaying) as reflected in oral folklore.

Keywords: procrastination, individual, delay, oral folklore, proverbs, fairy tales, values, responsibility, vice, epic, motivation, characteristic.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n29>

Hozirgi zamon jamiyatida odamlarning yashash va mehnat sharoitlarida jadal o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning mavjudligi, uzoq vaqt davomida katta hajmdagi ishlarni bajarish zarurati - bularning barchasi XXI asr ostonasida sodir bo'lgan keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar hisoblanadi. Ular insoniyat jamiyatida "prokrastinatsiya" (kechiktirish) fenomeni (hodisasi)ning jadal sur'atlar bilan tarqalishiga, bajariladigan muhim ishlarning orqaga surilishi, kechiktirilishi holatlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Indivud yoki shaxs faoliyatidagi prokrastinatsiya fenomeni murakkab psixologik hodisa bo'lib, u yoki bu vazifani, jumladan, shoshilinch ishlarni bajarishni yoki muhim qaror qabul qilishni (o'ylamagan, yo biror aniq maqsadni ko'zlamagan holda yoki atayin) orqaga surish, ya'ni kechiktirishdan iborat. Prokrastinatsiya hodisasining ildizlari insonning tub mohiyati va tabiatida yotadi. Diniy matnlarda kechikish katta gunohlardan biri sifatida qoralanadi. Hadislarda "Tongda uxlashlik rizqni qiyadi" deyilgan.

Xalqimizda ming yillik hayotiy tajribalardan o'tgan "bugungi ishni ertaga qo'yma", "qolgan ishga qor yog'ar" degan ajoyib maqollar bor. Nafaqat o'zbek tilida, balki boshqa har qanday millat tilida kechiktirishning salbiy jihatlari, ta'siri haqida juda ko'plab maqol va matallarni keltirib o'tish mumkin. Xalq og'zaki ijodida "prokrastinatsiya" atamasi ishlatilmasada, uning asl mazmuni ishni orqaga surish, yalqovlik, ishyoqmaslik, dangasalik, tekinxo'rlik, ishni o'z vaqtida bajarmaslik, har xil bahonalar izlab topish, aldash, kechiktirish illati o'zbek xalq ijodiyotining qadimgi namunalari bo'lmish ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, hikoyalar hamda latifalarda qoralangan va hajv qilingan, xususan, maqollarda mehnat, mehnatsevarlik, dangasalik haqida ko'plab ibratli so'zlar keltirib o'tilgan. "Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barokat", "Dangasaning vaji ko'p, ohangsizning avji ko'p", "Dangasaning g'ayrati ish

bitganda qo'zg'aydi", "Ekinni erta ekkan, hosilni erta olar" kabi maqollar bunga misol bo'la oladi. Masalan, "Dangasaga ish buyursang, otangdan ortiq aql o'rgatar" maqolida nafaqat ishyoqmaslar uchun xos bo'lgan asosiy xususiyat bayon etilmoqda, balki uning bu xususiyati ustidan yengil piching ham qilinmoqda. Ayrim maqollarda insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat, ish, kasb-kor ekanligi ifodalanadi va ularda dangasalik, ishyoqmaslik, sustkashlik qoralanadi. Xususan, "Bekorchidan xudo bezor", "Bekorchidan hamma bezor" maqollari fikrimizning tasdig'i hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi, shuningdek, qadimiy qadriyatlarimiz yosh avlod ta'lim-tarbiyasida, ularda milliy va umumbashariy fazilatlarni kamol toptirishda muhim ahamiyatga ega. Sharqning ulug' donishmandlari ham odamlarni doimo bir ish bilan mashg'ul bo'lishga da'vat etishgan. Masalan, Hazrat Bahouddin Naqshband o'zigacha o'tgan barcha so'fiy va mashoyihlar ta'limotini puxta egallab, "Dil ba yoru dast ba kor", ya'ni "Alloh qalbingda, qo'ling doimo ishda bo'lsin" shiorini o'ziga dasturilamal qilib olgan.

O'zbek xalq maqollarida bugungi ishni ertaga qoldirishning oqibatlari "bugungi ishni ertaga qo'yma" (prokrastinatsiyaga qarshi eng mashhur oltin qoida); "ertaga qolgan ishga qor yog'ar" (ish keyinga surilsa, kutilmagan to'siqlar chiqishi va ish umuman bajarilmay qolishi); "yalqovga ish buyursang, senga aql o'rgatar" (ishni paysalga soluvchi odamning bahonalari fosh etilishi); "erinchoqning ikki dunyosi bir" (vaqtni boy berishning ma'naviy zarari haqida); "bugungi tuxum ertangi tovuqdan yaxshi" (vaqtida qilingan kichik ish keyingi katta va'dalardan afzalligi haqida); "ishni bahonasi yiqitadi" (ish chin dildan qilinmaganda, prokrastinator o'zini oqlash uchun qidiradigan bahonalari haqida); "gap bilan osh pishmas" ishyoqmaslik va vaqtni boy berish borasida harakat boshlashga erinib, faqat quruq reja yoki gap bilan cheklanish (amaliy harakatsiz, faqat xayol va reja bilan natijaga erishib bo'lmasligi) kabi so'zlarda juda lo'nda va ta'sirli ifodalanganligini ko'rish mumkin. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida ham bu holat ijtimoiy hajv ostiga olingan, Jumladan, ertaklarda prokrastinatsiya holatiga berilgan qahramonlar, odatda salbiy yoki kulgili obrazlar sifatida gavdalanadi. Bunga misol qilib, "Tanbalboy" ertagini olish mumkin. Bosh qahramon Tanbalboy faqat pechka ustida yotib, har qanday harakatni orqaga suradi. Undagi bu holat ruhiy tushkunlik va motivatsiya yo'qligi bilan bog'liq bo'lib, faqat tashqi kuch yoki majburiyat tufayli u uyg'onadi. Yoki ertaklardagi yana bir mashhur qahramon hatto og'ziga tushayotgan olmaning bandini uzishga ham erinib, "kimdir meni qimirlatib qo'ysin" deb kutib yotadi. Bu holat harakatsizlikning eng oliy badiiy ifodasi ekanligi ta'kidlanadi.

Xalq sevgan qahramon Nasriddin Afandi latifalarida ham prokrastinatsiya va unga beriladigan bahonalar hajv qilinadi. Nasriddin Afandi haqidagi ba'zi latifalarda qishda uyining tomini tuzatishga erinib, "yoz kelsa kun isiydi, tom kerakmas, qishda esa baribir yomg'ir yog'ayapti, tuzatib bo'lmaydi" degan mantiqsiz bahonalari prokrastinatorlarning o'zini oqlash mexanizmiga yaqqol misol bo'ladi. Shuningdek, kishilarning o'z mas'uliyatsizligini oqlash uchun o'ylab topgan "falsafasi" ustidan hajv qilinadi. Buni "Eshakka ilm o'rgatish" latifasi misolida ko'rish mumkin. Afandi xonga eshagini yigirma yilda gapirtirishni va'da qiladi. Do'stlari bundan xavotir olganda, Afandi: "Yigirma yil ichida yo xon o'ladi, yo eshak", deb ishni va va'dani uzoq muddatga surib qo'yadi. Bu zamonaviy tilda "muddatni maksimal uzaytirish orqali javobgarlikdan qochish" deyiladi.

Dostonlardagi "g'aflat uyquasi" tushunchasi ham prokrastinatsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, bahodirlarning jang maydoniga kechikishi yoki dushman kelayotganda uxlab qolishi (g'aflatda

qolishi) xalq ijodida vatan va taqdir oldidagi mas'uliyatsizlik sifatida qattiq qoralanadi. Xulosa shuki, o'zbek xalq ijodiyotida ishni keyinga surishni, kechiktirishni vaqtni o'g'irlovchi va insonni qashshoqlikka yetaklovchi illat deb ta'kidlangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O'zbek xalq maqollari. "Fan" nashriyoti, 1981 y. 354 b.
3. Barabanshikova, V. V. Perspektivi issledovaniya fenomena prokrastinatsii v professionalnoy deyatelnosti / V. V. Barabanshikova, G. I. Marusanova // Natsionalniy psixologicheskiy jurnal. – 2015. – № 4 (20). – S. 130-140.
4. Navroskaya N. Prokrastinatsiya. Elektronnyy resurs. URL: <http://v-zhizni.ru/prokrastinacia.php>.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.